
QOSHTEPA_MUROJAAT_BOTGA YUBORILGAN SAVOLGA JAVOB:



MUROJAAT № 10

FISH: Turdaliyeva Nigoraxon Alijon qizi

Telefon: 998903002039

Manzili: Qo'shtepa tumani, Murabbiylar ko'chasi 56-uy

Murojaat matni:

“14 yoshli bola puliga dokument to'g'rilab topshirgan edim javobi ham kelmadi pul ham chiqmadi”

Ushbu savolga BTPJ Qo'shtepa tumani bo'limi boshlig'i Sh.Sharopov javob beradi:

Fuqaro Turdaliyeva Nigoraxon Alijon qizi 14 yoshgacha bolalar nafaqasi tayinlashni so'rab 2021 yil mart oyida MFYga xujjatlarni takdim etgan. Fuqaroning xujjatlari Yagona reyestr bazasi tomonidan ko'rib chiqilib Vazirlar Mahkamasining 05.03.2021 yil kungi 122 sonli qarorning 19 band "a" kichik bandiga ko'ra oilaning har bir a'zosiga to'g'ri keladigan o'rtacha oylik jami daromadning mezonlardan ko'pligi sababli fuqaroga nafaqa tayinlanishi rad etilgan.

MUROJAAT № 11

FISH: Turdaliyeva Nigoraxon Alijon qizi

Telefon: 998903002039

Manzili: Qo'shtepa tumani, Murabbiylar ko'chasi 56-uy

Murojaat matni:

“Bolalar puli davlat ishida ishlaydiganlarga chiqadimi yoki uyda o'tirgan ishsizlargami?”

Ushbu savolga BTPJ Qo'shtepa tumani bo'limi boshlig'i Sh.Sharopov javob beradi:

Vazirlar Mahkamasining 05.03.2021 yil kungi 122 sonli qarori 19 bandi "a" kichik bandiga ko'ra oilaning har bir a'zosiga to'g'ri keladigan bir oylik o'rtacha jami daromaddan yani 393827.10 so'mdan oshmaganda nafaqa tayinlanadi. 19 band "k" kichik bandiga ko'ra daromadlarning rasmiy manbalariga ega bo'lmagan va oxirgi 6 oy mobaynida ish izlab mehnat organlariga murojaat qilmagan hamda mehnat organlarida hisobda turmagan, o'zini o'zi band qilgan shaxslar ro'yxatiga kiritilmagan yoki xaq to'lanadigan jamoat ishlari ishtirokchisi hisoblanmagan oilaning mehnatga layoqatli a'zosi mavjud bo'lganda nafaqa tayinlanishi rad etiladi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2021-07-07 11:37:24